

PSIXOLOGIYADA SHAXSNING INDIVIDUAL FARQLARI HAQIDA G'ARB VA SHARQ OLIMLARINING QARASHLARI O'RTASIDAGI TAFOVUTLARI

Yo'ldoshqulov Asadbek Baxrom o'g'li

Aniq va ijtimoiy fanlar Universiteti

Psixologiya : psixologiya yo'nalishi

Magistratura 1 kurs talabasi

asadbekyoldoshqulov6@gmail.com

Annotatsiya. *Ushbu maqolada psixologiyada shaxs individualligiga oid G'arb va sharq olimlarning qarashlari o'rtasidagi bo'g'liqliklar va qarama-qarshiliklar haqida so'z boradi. Psixologiyada individual farqlar insonlar orasidagi psixologik va xulq-atvoriy o'zgarishlarni tushunishga yordam beruvchi muhim elementlardir.*

Ushbu maqolada, bir qator individual ya'ni har bir insoning o'zining individual xususiyatlari mavjudligi va ularning inson hayotida taraqqiyoti va faoliyatidagi ahamiyati individual farqlarning psixologik nazariyalar doirasida qanday tasniflanishi va ularning ahamiyati ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar. *Shaxs tushunchasi, individual xususiyatlar, psixika, xarakter, xulq-atvor, kognitiv farqlar.*

Различия взглядов западных и восточных ученых на индивидуальные различия человека в психологии

Абстрактный. *В данной статье говорится о связях и противоречиях между взглядами западных и восточных ученых на индивидуальность человека в психологии. В психологии индивидуальные различия являются важными элементами понимания психологических и поведенческих изменений среди людей.*

В данной статье рассматривается существование ряда индивидуальных, то есть собственных индивидуальных особенностей каждого человека и их значение в развитии и деятельности человеческой жизни, то, как классифицируются индивидуальные различия в рамках психологических теорий и их значение.

Ключевые слова. *Понятие личности, индивидуальные особенности, психика, характер, поведение, когнитивные различия.*

Differences between the views of Western and Eastern scientists about the individual differences of a person in psychology

Abstract. *This article talks about the connections and contradictions between the views of Western and Eastern scientists regarding the individuality of a person in psychology. In psychology, individual differences are important elements in understanding psychological and behavioral changes among people.*

In this article, the existence of a number of individual, that is, each person's own individual characteristics and their importance in the development and activity of human life, how individual differences are classified within the framework of psychological theories and their importance is considered.

Key words. *Concept of personality, individual characteristics, psyche, character, behavior, cognitive differences.*

Tirik mavjudotlar orasida inson eng murakkabidir. Odamzot tug'ilganidan so'ng tashqi olam bilan uzviy bog'liq bo'ladi. Vaqt o'tishi bilan tushunishga, o'rganishga harakat qila boshlaydi. Asta-sekinlik bilan o'zini ham anglay boshlaydi. Inson o'zining mohiyatini tushunishga harakat qilish jarayonida u nafaqat tashqi, balki ichki, pinhona xususiyatlarga ham ega ekanligini biladi. Psixologiyada shaxs, individ hamda individuallik tushunchalari mavjud bo'lib, ular bir-biridan farq qilsa-da, o'zaro uzviy bog'liqdir. Har bir kishining shaxsi uning individualligini vujudga keltiradigan xislat va fazilatlarning faqat ungagina xos birikuvidan tarkib topgan. Individuallik shaxsning o'ziga xosligini, uning boshqa odamlardan farqini aks ettiruvchi psixologik fazilatlar birikmasidir. «Individ» va «Shaxs» tushunchalari bir biriga o'xshash bo'lmagani singari, o'z navbatida shaxs va individuallikning ham o'xshash, ham farqli jihatlari mavjud. Muayyan sotsial birlik uchun yetakchi faoliyatga ko'proq darajada «jalb qilingan» individual fazilatlarga shaxsning, xususan, o'ziga xos fazilatlari sifatida yuzaga chiqadi va bu borada Sharq va G'arb mamlakatlari olimlari o'z izlanishlari va yondashuvlarini olib borgan.[1.1]

Tarixan olib qaraydigan bo'lsak, Sharq olamida ilm-fan g'arbiga qaraganda ertaroq taraqqiy etdi. O'rta asrlarda bir qator sharq mutafakkirlari o'z asarlarida shaxs taraqqiyoti haqidagi hamda taraqqiyotga ta'sir etib turuvchi omillar haqida so'z yuritganlar.

Sharq psixologiyasi, xususan, Konfutsiy ta'limoti, insonning shaxsiy va ijtimoiy mas'uliyatlarini ta'kidlaydi. Individual farqlar jamiyat va etik qadriyatlar bilan bog'liq.

Sharqda shaxsiyat ko'proq ijtimoiy kontekstda o'rganiladi, bu esa insonlar orasidagi munosabatlar va ijtimoiy ro'lga bog'liq. Konfutsiy yondashuvi shaxsiyatni ijtimoiy etik va axloqiy qadriyatlar orqali tushuntiradi. Sharqda shaxsiyat ko'proq kollektivism bilan bog'liq bo'lib, jamiyat va oilaning ahamiyati ta'kidlanadi. Konfutsiy ta'limotida insonning ichki va tashqi xulq-atvori o'rtasidagi muvozanat muhim hisoblanadi, bu esa individual farqlarni ijtimoiy kontekstda ko'rishga yordam beradi.[2.1]

Buddist psixologiya, insonlarning ichki dunyosini va his-tuyg'ularini o'rganishga qaratilgan. Buddha ta'limoti individual farqlarni shaxsiy rivojlanish va ichki tinchlik orqali tushuntiradi. Meditasiya va intuitsiya bu yondashuvda muhim ahamiyatga ega bo'lib, individual farqlarni o'rganishda shaxsiy tajriba va ichki tushunishga asoslanadi

Buddizm psixologiyasi individual farqlarni ma'naviy rivojlanish orqali tushuntiradi. Insonlar o'rtasidagi farqlar hissiy holat va shaxsiy qarashlar bilan bog'liqdir. Meditativ usullar orqali inson o'z ichki holatini tushunishga, o'z farqlari va xususiyatlarini anglashga harakat qiladi. Bu jarayon individual farqlarni qabul qilish va o'zgartirish imkoniyatini beradi. Sharq tibbiyotida (masalan, Ayurvedada) individual farqlar tananing fiziologik va energetik holati bilan bog'lanadi. Bu yondashuv, inson

organizmining alohida xususiyatlarini va ularga mos ravishda davо usullarini belgilashga qaratilgan.[4]

Sharqda bo'lgani kabi g'arb olamida ham shaxs muammosi, uning rivojlanishi, kamol topishi asosiy masala sifatida diqqat markazda edi. Ko'pgina olimlar bu borada izlanishlar olib bordi va shaxs taraqqiyotiga oid qator nazariyalarni ilm-fanga taqdim etdi. XIX asrda biologlar E. Gekkel va F. Myuller tomonidan biogenetik qonun rekapitulyatsiya (takrorlanish) tamoyili kashf etildi. Unga ko'ra organizmning individual taraqqiyoti (ontogenez) o'sha tur avlodlari tarixiy taraqqiyotini (filogenez) takrorlaydi.[5]

G'arb psixologiyasida individual farqlar Zigmond Fred inson shaxsiyatini ongsiz motivlar va ichki konfliktlar orqali tushuntiradi. Uning nazariyasida individual farqlar shaxsning ongsiz qismi bilan bog'liqdir. Inson xulq-atvori ichki konfliktlar, o'z-o'zini anglash va rivojlanish jarayonlaridan kelib chiqadi. Freddik yondashuvda shaxsiy farqlarni shakllantiruvchi omillar ongsiz motivlar, ehtiyojlar va trama hisoblanadi. Fredga ko'ra, insonlar o'z xulq-atvorini o'zlari anglamaydigan ichki kuchlar orqali boshqariladi.

Psixozanaliz shaxsiyatni uchta tuzilma: Id (instinkt), Ego (razm) va Superego (axloqiy qoidalar) orqali tahlil qiladi. Bundan tshaqari Hans Eysenk shaxsiyatni ekstraversiya-introversiya va neyrotizm-stabilitas kabi ikki asosiy o'lchov bo'yicha tasniflaydi. U shaxsiyatni biologik va psixologik omillar bilan bog'laydi.[6]

Eysenkning tadqiqotlari natijasida shaxsiy xususiyatlar va xulq-atvor o'rtasidagi bog'liqlik o'rganiladi, bu esa individual farqlarning bilimga bo'lgan ta'sirini ko'rsatadi.

Kognitiv psixologiyada individual farqlar fikrlash jarayonlari, xotira va qaror qabul qilish usullarida ko'rinadi. G'arb psixologlari bu jarayonlarni tadqiq etishda eksperimental usullarni qo'llaydilar. Masalan, ulardan biri, kognitiv qiyinchiliklar (misol uchun, e'tiborni saqlashdagi farqlar) bilan bog'liq. Ushbu farqlar odamning muammolarni hal qilish va yangi ma'lumotlarni o'zlashtirish qobiliyatiga ta'sir qiladi. Shaxs ijtimoiy rollari nazariyasi ham mavjud bo'lib, ruhshunoslar E. Bern va K. Levinlar tomonidan taklif etilgan. Ushbu psixologik nazariyada insonning hayotda o'ziga xos bo'lgan ijtimoiy rollarni ijro etishi ta'kidlanadi. Ma'lum bir rolni ijro etishiga qarab odam shaxsining asosiy xususiyatlari shakllanib, rivojlanib boradi.[2.2]

A.V.Petrovskiygacha psixologlar shaxsning bir tekis kamol topishini o'rgangan bo'lsalar, u shaxs shakllanishining prosotsial (ijtimoiy qoidalarga muvofiq) va asotsial (aksilijtimoiy) bosqichlari ham bo'lishi mumkinligini isbotlashga harakat qildi. Shaxsning kamol topishi uchta makrofazada sodir bo'lishini qayd etadi, birinchisi - bolalik davriga to'g'ri kelishini, unda ijtimoiy muhitga moslashish ro'y berishini; ikkinchisi - o'smirlarga xos individuallashtirish; uchinchisi - o'spirinlikda, ya'ni yetuklikka intilish davrida o'ziga xos holatlarni muvofiqlashtirish xususiyatlari paydo bo'lishini bayon qiladi.[3]

D.B.Elkoninning tasnifi A.N.Leontevning yetakchi faoliyat nazariyasiga, har qaysi rivojlanish pallasida faoliyatning biror turi ustunlik qilishi mumkinligi bilan asoslanadi.

Yetakchi faoliyatning inson shaxs sifatida kamol topishidagi roli nazariyaning negizini tashkil qiladi. Yuqorida ta'kidlanganidek, har bir olim o'z nuq'tai nazaridan kelib chiqib, shaxs rivojlanishi hamda shu rivojlanish jarayonlariga vujudga keladigan individual xususiyatlar haqida mulohazalar yuritgan va keng ommaga taklif etgan.[1.2]

Individual farqlar psixologiyaning ko'plab nazariyalarida o'z ifodasini topadi. Ular insonlarning xulq-atvorini, hissiy holatini va ijtimoiy munosabatlarini tushunishga yordam beradi. Har bir nazariya o'ziga xos yondashuv va tushuntirishlarga ega, shuning uchun individual farqlarni kompleks tarzda o'rganish zarur.

G'arbda shaxsiyat ko'pincha o'zgarimas va mustaqil sifat sifatida ko'riladi. Bunda shaxsiyatning biologik asoslari ta'kidlanadi.

Sharqda esa shaxsiyat dinamik va o'zgaruvchan sifat sifatida baholanadi. Bu yerda shaxsiyatni rivojlantirish va o'zgarish uchun ko'proq imkoniyatlar mavjud. G'arbda kognitiv jarayonlar asosida individual farqlar tahlil qilinadi, psixologik tajribalar va empiriyaga e'tibor beriladi.

Sharqda esa fikrlash jarayonlari ko'proq intuitiv va ma'naviy yondashuvlar bilan bog'liq. Bu esa individual farqlarning qabul qilinishida farq qiladi.

Xulosa: G'arb va Sharq olimlarining individual farqlarga oid qarashlari bir-birini to'ldiradi va ba'zi jihatlarda qarama-qarshi bo'lishi mumkin. Har ikkala yondashuv inson shaxsiy xususiyatlarini, xulq-atvorini va ma'naviyatini tushunishga yordam beradi. Psixologiyaning global rivojlanishi uchun bu farqlarni inobatga olish zarur.

Ko'plab olim hamda mutafakkirlar o'z yo'nalishlari doirasida insonning shaxs sifatidagi kamoloti, unda qanday xislat va xususiyatlarning mavjud bo'lishi haqida o'z fikrlarini aytgan, qarashlarini keng ommaga e'lon qilgan. Sharq va g'arb olimlari shaxs rivojlanishiga oid qarashlarini aytar ekan, uning har tomonlama kamoloti nimalarga bog'liq ekanligini tushuntirishga harakat qildilar. Sharq mutafakkirlari ko'proq insondagi axloqiy xususiyatlarga e'tibor bergan bo'lsa, g'arblik olimlar insonning genetik hamda ijtimoiy rivojlanishiga ko'proq e'tibor qaratdilar.

Bir qator g'arb olimlari insonni shaxs sifatida rivojlanishi tushuntirish uchun turli nazariyalar ishlab chiqildi: biogenetik, sotsiologik, sotsiogenetik, psixoanalitik va yana boshqalar. Ushbu nazariya vakillar biri ikkinchisini inkor etib, bir-birining qarashlarini tan olamydi. Aytish kerak-ki, ba'zi hollarda ular bir-biri to'ldirib turadi. Hech bir nazariyani inkor etib bo'lmaydi. Biogenetik nazariya vakillari inson rivojlanishining asosini genetikaga bog'lab tushuntirsa, sotsiologlar ijtimoiy muhitni asosiy deb bildi. Psixoanalitik nazariya vakillari insonni mayllar harakatga unday degan fikrni ilgari surdilar. Sharq mutafakkirlari esa insondagi halollik, adolatlilik, saxiylik, hayo, sabr-toqat, qanoat, muruvvat, sahovat, vafo, diniy ilmning mavjudligi shaxs faoliyatini to'g'ri yo'naltirishning asosi ekanligini ta'kidlashdi. Barcha fikrlarni kelib chiqib aytish o'rinli-ki, ushbu fikrarning hech bir xato emas, barcha fikr-mulohazalar shaxs individual rivojlanishining muhim jihatlarini tavsiflab bera oladi.

G'arb va Sharq psixologiyasidagi individual farqlarni tushunish, ularning o'zaro bog'liqliklari va qarama-qarshiliklari bilan birga, inson xulqini yaxshiroq anglashga

yordam beradi. Bu ikki yondashuv bir-birini to'ldirib, psixologik nazariyalar va amaliyotlarning rivojlanishida muhim rol o'ynaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Freud, S. (1900). "The Interpretation of Dreams.
2. E.G'.G'oziyev. "Ontogenez psixologiyasi". O'quv qo'llanma. Toshkent. "NIF MSH". 2020.
3. M.G.Davlatshin, Sh.Do'stmuhamedova, M.Mavlonov, S.To'ychiyeva. "Yosh davrlari va pedagogik psixologiya". O'quv qo'llanma. Toshkent-2004.
4. Beck, A. T. (1976). "Cognitive Therapy and the Emotional Disorders."
5. Ковшиков В.А., Пухов В.П. Психология. Теория речевой деятельности: Учебник для вузов. — М.: Астрель, АСТ, 2007.
6. Леонтьев А.А. Психолингвистические единицы и порождение речевого
7. Ю.С.Степанов. Основы общего языкознания. - М., 1975.